
SAXOVAT - INSONIYLIKNING OLIY FAZILATI



SAXOVAT - INSONIYLIKNING OLIY FAZILATI

Ehson qilish, insonlar ko'ngliga xayr va saxovat amallari orqali yo'l topish insoniylikning oliy fazilatlaridan hisoblanadi. Muqaddas Islom dinida ham saxiy insonlar va saxovatning mukofoti yuksak ekanligi alohida qayd etilgan.

Quvonarlisi, oramizda mana shunday xayrli amallarni o'ziga shior qilib olgan saxovatpeshalar ko'p topiladi. Hazrati Ali mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi yosh tadbirkor Valijon To'ychiyev mana shunday qo'li ochiq saxovatpeshlardan.

Hazrati Ali mahalla fuqarolar yig'ini raisi Subhonali Nishonovning so'zlariga ko'ra, kam ta'minlangan va ehtiyojmand oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida mahallada jamoatchilik asosida "Saxovati mahallai Hazrati Ali" jamg'armasi tashkil etilgan. Ushbu jamg'arma mablag'lari ham saxovatpesha insonlar moddiy ko'magi asosida shakllantirilib, tashkil etilgan shtab a'zolari tomonidan shakllantirilgan mablag' va mahsulotlar maqsadli yo'naltiriladi.

Tadbirkor Valijon To'ychiyevning moddiy ko'magi va mazkur jamg'arma hisobidan bugun Hazrati Ali, Sarikanda va Saribozorcha mahalla fuqarolar yig'inlarida yashovchi, boquvchisini yo'qotgan 16 nafar fuqarolar va ularning oila a'zolariga sifatli un mahsuloti manzilli tarqatilib ularning holidan xabar olindi. - "Mahalla fuqarolar yig'ini ma'muriyati tomonidan saxovatmand tadbirkor Tuychiyev Valijon Bahronovichga o'z minnatdorchiligimizni bayon etamiz", - deyiladi bizga yo'llagan xabarda.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-01-27 09:34:30